



Comparative analysis of the grammatical number of nouns in the English and Karakalpak languages

Khikmet BEKBERGENOV¹

Karakalpak State University named after Berdakh

ARTICLE INFO

Article history:

Received June 2024

Received in revised form

10 June 2024

Accepted 25 July 2024

Available online

15 July 2024

Keywords:

noun,
grammatical number,
singular,
plural,
morphological markers.

ABSTRACT

The article analyzes the structural-semantic features of the grammatical category of nouns in the English and Karakalpak languages, which belong to different language families. The scientific works of English, Russian, Uzbek, and Karakalpak scholars were used to illuminate the topic. During the research, we were convinced that in both languages, plural forms express their main meaning only when used in relation to concrete nouns. In all other cases, it expresses non-categorical meanings. When added to proper, abstract, material nouns, and all other types of nouns, the plural form expresses peripheral meanings. The research employed methods of comparative, structural and semantic analysis.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss4-pp249-258>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi ot soʻz turkumiga oid son grammatik kategoriyasining qiyosiy tahlili

ANNOTATSIYA

Kalit soʻzlar:

ot,
grammatik son kategoriyasi,
birlik,
koʻplik,
morfologik koʻrsatkishlar.

Maqolada har xil tillar toifasiga kiruvchi ingliz va qoraqalpoq tillaridagi ot soʻz turkumiga oid son grammatik kategoriyasining strukturaviy-semantik xususiyatlari tahlil qilindi. Mavzuni yoritish uchun ingliz, rus, oʻzbek va qoraqalpoq olimlarining ilmiy mehnatlaridan foydalanildi. Tadqiqot mobaynida shunga amin boʻldikki, oʻrganilayotgan ikkala tilda ham koʻplik shakllari aniq otlarga nisbatan ishlatilgandagina oʻzining asosiy maʼnosini ifodalaydi. Boshqa barcha holatlarda qoʻshimcha maʼnolarni ifodalaydi. Atoqli, mavhum, modda, va boshqa barcha ot turlariga qoʻshilganda koʻplik shakl oʻzida periferik maʼnolarni namoyon qiladi. Tadqiqot ishida chogʻishtirma, struktur analiz va semantik analiz metodlaridan foydalanildi.

¹ PhD student, Karakalpak State University named after Berdakh.

Сравнительный анализ грамматического числа существительных в английском и каракалпакском языках

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

имя существительное,
грамматическая категория
числа,
единственное число,
множественное число,
морфологические
показатели.

В статье проанализированы структурно-семантические особенности грамматической категории числа существительного в английском и каракалпакском языках, относящихся к разным языковым семьям. Для освещения темы были использованы научные труды английских, русских, узбекских и каракалпакских ученых. В ходе исследования мы убедились, что в обоих исследуемых языках формы множественного числа выражают свое основное значение только тогда, когда они используются в отношении конкретных существительных. Во всех остальных случаях выражает вне категорические значения. При соединении с именем собственным, абстрактным, материальными и всеми другими существительными форма множественного числа проявляет периферийные значения. В исследовательской работе использовались методы сравнительного структурного и семантического анализа.

KIRISH

Tabiatdagi barcha jonli va jonsiz borliqlar ko'p va yakka tarzda bo'lib ongimizda birlik va ko'plik mantiqiy tushunchalarini hosil qiladi. Bu tushunchalar o'z navbatida tilda ot, olmosh, son va boshqa so'zlarning morfologik, sintaktik va leksik shakllarida o'z aksini topadi. Tilshunoslikda bu shakllar son grammatik kategoriyasining asosiy tadqiqot obyekti hisoblanadi. Son kategoriyasi barcha dunyo tillariga xos bo'lgan universal kategoriya bo'lgani bilan turli tillarda son ma'nosining ifodalanishida bir qancha farqlarni ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun ham Yespersen son "ikki qo'shish ikki barobar to'rt" kabi eng oddiy tabiiy kategoriyalardan biri bo'lib tuyulsa-da, unga chuqurroq nazar tashlasak, uning o'ziga yarasha mantiqiy va lingvistik qiyinchiliklarga ega ekanligini yozgan edi [22, 188]. Ayniqsa, bu masalalar tipologik tuzilishi qardosh bo'lmagan tillarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki qardoshlik darajasi uzoqlashgan sari ulardagi o'xshashliklar kamayib farqlar ortib boraveradi. Ushbu xususiyatlarni diaxron va sinxron planda tadqiq etish, ularning izomorf va allomorf jihatlarini aniqlash, bugungi tilshunoslikning oldida turgan eng dolzarb masalalardan biridir.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODIKASI

Qoraqalpoq va ingliz tillarida otning semantik va grammatik kategoriyalari bo'yicha tilshunos olimlar tomonidan ko'plab ilmiy ishlar yozilgan. Qoraqalpoq tilida otning morfologik, sintaktik tuzilishi, morfologik son, kelishik, egalik kategoriyalari va ot so'zlarning yasalishi A.Qidirboyevning "Hozirgi qoraqalpoq tilidagi ot so'zlar" asarida chuqur tadqiq etilgan. Shuningdek, otning son kategoriyasi D. Nasirov va A. Orazimbetovlar tomonidan maxsus tadqiq qilindi Ingliz tili bo'yicha R. Quirk, S. Grinbaum, J. Svarvik, G. Lich, R. Hadlston, G. Pullum, R. Karter va M. McKartilar ingliz

tilidagi otning morfologik va semantik tuzilishi, grammatik son, kelishik kategoriyalari bo'yicha tadqiqot ishlari natijalarini o'z asarlarida aks ettirganlar. Ch. Filmor, S. PETERS, D. VESTERSHTAL, A. VIKKENSAR ingliz tilidagi otning son, kelishik kategoriyalarini maxsus olib tadqiq qildilar. Tadqiqot ishida chogishtirma, struktur analiz va semantik analiz metodlaridan foydalanildi.

TADQIQOT MUHOKAMASI VA NATIJALARI

Qoraqalpoq va ingliz tillaridagi otning son grammatik kategoriyasi birlik va ko'plik oppozitsiyasiga ega bo'lib, ular bir va birdan ziyod grammatik ma'nolarini hosil qiladi. Ikkala tilda ham ot faqat ko'plik ma'noni ifodalovchi shakllarga ega bo'lib birlik son esa maxsus shakllarga ega emas. Ya'ni qoraqalpoq tilida ham ingliz tilida ham birlik ma'no so'zning o'zagi orqali ifodalanadi. R. Kuirk v.b ingliz tilidagi otlarning affikssiz birlik son shaklini so'zliklarda ishlatiladigan markersiz shakl deb ataydi [24, 304]. J. Bo'ronov v.b esa birlik va ko'plik shakllarni belgisiz (unmarked) va belgili (marked) formalar deb keltiradi [17, 15]. N. Baskakov, A. Davletov v.b [18, 88], G'. Abdurahmonovlar turkiy tillaridagi otlarning birlik son shaklini nol forma deb hisoblaydi [12, 28]. R. Muryasov birlik shaklni barcha tillarda son oppozitsiyasining markersiz azosi va so'zlikdagi shakli deb yozadi [9]. R. Hadlstonning fikricha, *boy* va *boys* so'zlari *boy* leksemasining birlik va ko'plik ko'rinishlaridir [21, 239]. Yuqoridagi olimlarning fikrlaridan ko'rinib turganidek, otning birlik son ma'nosi so'zning o'zagi orqali ifodalanadi. Ammo, birlik son shaklining bo'lmasligi ortidan uning faqat birlik ma'noni ifodalamasligi bo'yicha bahs-munozaralar kelip chiqqan. Masalan, N.K. Dmitriyevning fikricha, birlik son shakli bir vaqtning o'zida birlik va ko'plik ma'nolarni ifoda qiladi. *Ot* so'zi umumiy kollektivlik *otlar* ma'nosini ham keltirib chiqarib, birlik va ko'plik ma'nolar bir biridan sintaktik vositalar orqali ajraladi [4, 219]. R. Hadlstonning fikricha, ingliz tilidagi *boy* singari o'zak otlar son ma'nosiga neytral hisoblanadi [21, 239]. M.E. Dubrovina birlik shaklda birlik va ko'plik ma'nolar farqlanmasligini yozadi. [5]. S.N. Ivanov o'zining maqolasida birlik va ko'plik son birlik son shaklda jamlangan deb keltiradi [5]. L.S. Barxudarov nol shakldagi birlik son ma'nosini birlik deb emas balki *ko'plik emas ma'no* deb ataganimiz ma'qul deb yozadi [1, 47]. G. Korbet o'zining *Number (Son)* nomli mehnatida turk tilidagi *ev* (uy) so'zi *ev* (uy) va *evler* (uylar) ma'nolarida kela olishiga urg'u beradi va son kategoriyasi semantik jihatdan *umumiy/birlik* va *ko'plik* oppozitsiyasini tashkil qiladi [20, 14]. R.T. Kamalova o'z dissertatsiyasida tatar tilida otlar nominativ shaklda ajralib turgan holda (misol: *agach*, *kitob*, *urindik*, *tarmách*, *garmun*, *chilek*) birlik ma'nosini ko'rsatmaydi, aksincha, predmet haqida umumiy tushuncha berishini aytadi [6, 57]. K. Grenbek ham shunga o'xshash fikr bildiradi: Каждое тюркские имя, за исключением собственных имен, обозначает род. *at* обозначает в первую очередь не одну лошадь, или много лошадей, а лошадь как понятие семейство «лошадь», всех мыслимых лошадей [11, 6]. K.M. Lyubimov o'z maqolasida nol ko'rsatkichli shaklda turgan otlarning kontekstda va aniq vaziyatlarda uchraydigan bir necha ma'nolarini sanab o'tadi: birlik (bir predmet), ko'plik (bir necha yoki ko'p predmet), juftlik (ikkita bir jinsli predmet), jamlovchilik (sinfiy tushuncha), partitivlik (butunning bir qismi), noma'lum son (sanoqsiz, bir yoki bir necha predmet) [8]. Yuqoridagi olimlarning fikrlaridan ko'rinib turibdiki, har qanday so'zning asosi hamma vaqt ham son ma'nosini anglatishi shart emas. Chunki, otning so'z turkumi sifatida kategorik ma'nosi uning predmetlik ma'nosi bo'lgani uchun, predmetlik tushuncha oldingi planga chiqqan paytda predmetning soni ahamiyat kasb etmaydi.

V.G. Guzev va D.M. Nasilovlar nol ko'rsatkichli birlik shakl son haqida hech qanday axborot bermasligini yozib, turkiy tillarda *bir* so'zi birlik ma'nosini ifodalovchi grammatik

ko'rsatkich bo'la oladi degan xulosaga keladilar [2]. Ularning fikrlarini e'tiborga oladigan bo'lsak, kitob so'zining birlik va ko'plik shakllari *kitob-kitoblar* emas, balki *bir kitob-kitoblar*, ya'ni *bir/lar* oppozitsion ko'rsatkichlardan iborat bo'lishi kerak. Lekin bu qarashlarning barchasi, kontekstdan tashqaridagi, masalaning faqat nazariy jihatlari bo'lib, amalda ingliz tilida ham, qoraqalpoq tilida ham birlik ma'nosi nol ko'rsatkichli shaklda ifodalanadi.

1-jadval

Birlik va ko'plik shakllari va ma'nolari

Son kategoriyasi		
	Birlik	Ko'plik
Shakl	affiksiz shakl	affiksli shakl
Ma'no	birlik/umumiylik	ko'plik

Quyidagi misollardan nol ko'rsatkichli shakl birlik ma'nosini aniq ko'rsatib turganini ko'rishimiz mumkin.

Ana biraz sóyledi, onıń sózleri kewilli qol shappatlawlar menen bólinip turdı (T. Qayıpbergenov).

Bala úlken adamlarday maǵan qarap basın iydi de, waqtı xosh bolıp tuttıń basına shıqtı (Ó. Ayjanov).

Keshe **doktor** kelip oǵan miywa jewiń kerek, – dedi (Ó. Ayjanov).

Bu misollarda qalin shriftda yozilgan birlik sonidagi otlarni ko'plik soniga aylantirish uchun *-lar* ko'plik affiksini qo'shishning o'zi kifoya. Butun kontekstning umumiy yoki xususiy ma'noda bo'lishi otning birlik shakli umumiy yoki birlik ma'nosini berishini ta'minlaydi.

Otlarning birlik son shaklidagi ma'nolari otning qaysi ma'no turlariga mansubligiga bog'liq bo'ladi. Birlik/ko'plik oppozitsiyalari asosan sanaladigan otlarga (konkret otlarga) tegishli. Chunki, konkret predmetlarga bitta yoki bittadan ortiq bo'la oladi. Misol:

Janet was a pretty blooming girl (Dickens).

We could see a wild stone-walled park (Galsworthy).

Bu misollarning barchasida *a/an* artikli noaniqlik va birlik ma'nolarida kelib, *girl*, *park*, *chair* kabi sinfiy nomlarning bitta namunasini ajratib ko'rsatib turadi.

Ingliz tilidagi artikllarning so'z turkumidagi maqomi shu kungacha aniq o'z yechimini topmagan masalalardan biridir. Ba'zi olimlar artikllarni so'zlar deb olib alohida so'z turkumiga kiritisa, boshqalar ularni ot so'z turkumidagi aniqlik/noaniqlik kategoriyasi birliklari sifatida ko'rib, morfemaning alohida bir turiga kiritadilar. Komarova va Zapevalovalar [7, 89] artiklni so'z birikmasidagi segmentlik xususiyatlari bo'yicha sintaksis va morfologiya orasidagi birlik deb hisoblaydilar. Artikllar prepozitiv yoki postpozitiv tarzda otga birikmasa ham, boshqa so'z o'zgartiruvchi morfemalar kabi otga maxsus ma'no qo'shadi. Shu jihatdan, artikllarga o'zini morfologik birlik sifatida tutadigan sintaktik birlik deb qarashimiz ma'qul. Qoraqalpoq tilida otlarning son ma'nosi morfologik, sintaktik va leksik-semantik usullarda ifodalanadi. Aslida morfologik usul qo'shimchalarga bog'liq usul bo'lgani uchun son kategoriyasida ko'pincha otning ko'plik shakliga nisbatan ishlatiladi. Lekin A.Q. Urazimbetov birlik son shaklining nol ko'rsatkichli shaklda turib birlik ma'nosini berishini morfologik usul deb hisoblaydi [24, 20]. Misol:

Jolbaris shoʻngʻiyip otirdi, biraq názeri mende, ırıldawı pátli (Á. Shamuratov).

Bu misolda gap bir dona yoʻlbars haqida ketayotgan boʻlib, birlik maʼnosini morfologik nol koʻrsatkichli shaklda bermoqda. Yaʼni qoraqalpoq tilida nol shaklida turgan har qanday ot kontekstga qarab birlik maʼnosini ifodalay oladi. Ingliz tilidagi nol koʻrsatkichli shaklda turgan otlar turkiy tillardagi xuddi shunday shakldagi otlardan ancha farq qiladi. Chunki ingliz tilida birlik shaklda sanaladigan otlardan oldin hamma vaqt aniqlik va noaniqlik artikllar ishlatiladi. Artikllar otlarning maʼnolari oʻzgarishiga bevosita taʼsir oʻtkazib turadi va birlik, sinfiylik, aniqlik va noaniqlik tushunchalarini keltirib chiqaradi. Ingliz tilidagi *a/an* noaniqlik artikli *one* (bir) sonidan kelib chiqqan (eski ingliz tilida *an*) va *one* maʼnosi baʼzi turgʻun soʻz birikmalarida saqlanib qolgan: *not a (=one) word did he say; in a (=one minute); at a time; wait a minute; at a blow; of an age* [19, 47]. R. Kuirk *a/an* noaniqlik artiklini urgʻuli *one* sonining urgʻusiz koʻrinishi deb ataydi [25, 254]. Masalan, *I have two children, a boy and a girl* gapidagi *a boy, a girl* soʻzlari birlik maʼnosida ishlatilib, noaniqlik artikli *one* maʼnosini sust maʼnoda koʻrsatib turadi.

Qoraqalpoq tilida ham ingliz tilidagi kabi otlarda noaniqlik darajasini ifodalovchi til birliklari mavjud. *Bir* soʻzi faqat aniq sonni bildirib qoʻymay, nomaʼlum predmetlar haqida gapirganda ham qoʻllaniladi. Bunday maʼnoda *bir* soʻz ohangsiz aytilib birlik sonidagi otdan oldin ham koʻplik sonidagi otlardan oldin ham qoʻllanilaveradi. Shuni taʼkidlash joizki, otlardagi aniqlik va noaniqlik darajalari son kategoriyasi bilan chambarchas bogʻliq boʻladi va hatto butun yaxlitlikni tashkil etadi.

Ingliz tilida ham, qoraqalpoq tilida ham mantiqiy-semantik jihatdan faqat birlik sonda turuvchi soʻzlar boʻlib, ular leksik birlik yoki birlik maʼnosining leksik-semantik usulda ifodalanishi deb ataladi. Birlik maʼnosi soʻz semantikasida son maʼnosining bir son maʼnosiga tenglashuvi orqali namoyon boʻladi: *bir, dara, taq, jalgʻiz, jekke, men, sen, ay, quyash, Alisher, Berdaq*. Semantik birlik turkumidagi soʻzlarga quyidagilar kiradi: 1) atoqli otlar a) kishi nomlari (antroponimlar): *George, Bayram* b) geografik atamalar (toponimlar): *shahar, davlat, daryo, dengiz, koʻl, togʻ* nomlari: *Nukus, London, England, the Nile, Amudaryo, the Black Sea, Aral teʼnizi, Qarataw*, v) osmon jismlari nomlari: *Mars, Saturn* g) uy hayvonlari atoqli otlari: *Qutliyaq, Fido* d) mavsumiy oy nomlari: *gʻuz/autumn, November/noyabr, Sunday/ekshembi* e) kasallik nomlari: *cancer/oʻspe*; f) fan nomlari sport turlari g) dunyo nomlari: *north, east, south, west / arqa, shıgıs, qubla, batis* h) gazeta, jurnal, kitob nomlari: *Newsweek, Erkin Qoraqalpoqstan, Qırq qız, Animal Farm* i) tabiatidan yakka predmetlarni ifodalovchi ommaviy nomlar: *moon, sun, earth, oy, quyash, jer*. Bu soʻzlar ingliz tilida planeta maʼnosida katta harfda va atoqli ot maʼnosida ishlatiladi: *Earth, Moon, Sun*. 2) odam va hayvonlarning dara azolari nomlari: *bawır/liver, til/tongue, bas/head, júrek/heart, murın/nose*. 3) abstrakt nomlar: *bilim, baxt, knowledge, happiness*.

Ingliz tilida modda otlari birlik shaklda noaniqlik artikli va koʻplik shaklida kelib, shu moddalarning turini, navini ifodalab ularning bir turi, koʻp turlari maʼnolarini bildiradi. Ingliz tilida jamlovchi ot shakllari ham birlik maʼnosida va birlik sonda qoʻllaniladi va birlik feʼllar bilan moslashadi. Jamlovchi otlar deb bir jinsli yoki turli predmetlarning jamlanib bir butunlikni ifodalovchi ot turlariga aytiladi. Ular bir necha elementlardan iborat boʻlsa ham bitta funksiyani bajaradi. Ingliz tilida jamlovchi otlarga jonli va jonsiz predmetlardan iborat boʻlgan soʻzlar kiradi. Sanab boʻlmaydigan jamlovchi otlarga jonsizlik kategoriyasidagi otlar kiradi. Jonlilik kategoriyasidagi jamlovchi otlar esa asosan kishilarga oid soʻzlardir. Birinchi guruhga *accomodation baggage, cash, change*

clothing, crockery cutlery equipment, food, fruit, furniture, garbage, hardware, jewelry, junk, wastage va. h so'zlar kirsas, ikkinchi guruhdagi jamlovchi otlarga quyidagilar kiradi: *association, audience, army, band, choir class, firm, club, college, committee, community, company, crew crowd, department, electorate, enemy, family*. Qoraqalpoq tilida jamlovchi otlarga quyidagilar kiradi: *adamzat, ag'ash, el, jemis, komanda, mal, mashina, xaliq, haywanat, pada, qurt-qumursqa, shanaraq, shibin – shirkey, taslandi*.

Ingliz tilida quyidagi so'zlar -s ko'plik affiksnini olsada, birlik ma'noni ifodalaydi. Bular turlanmaydigan ko'plik shaklida turuvchi birlik ma'nodagi so'zlardir.

1) *News* so'zi hamma vaqt birlik ma'noda ishlatiladi: *No news is good news (prov)*.

2) Fan nomlari: *acoustics, athletics, classics, economics, ethics, gymnastics*.

Shu o'rinda -s affiksi so'z o'zgartiruvchi affiks vazifasida emas, balki so'z yasovchi affiks sifatida xizmat qiladi. Masalan, *linguistics* so'zida -s *linguistic* sifat so'ziga ulanib ot yasayapti. Ya'ni *measles, politics, news* va shunga o'xshash so'zlar leksik xususiyatlarga ega so'zlardir [22, 244].

3) Ayrim kasallik turlari: *measles, mumps, diabetes, rickets, shingles*.

4) Sport turlari: (a game of) *darts, billiards, checkers, draughts, dominoes*.

Ingliz va qoraqalpoq tillarida ko'plik shakllar. Ingliz tilida otlarning son kategoriyasi ikki guruhga bo'lib o'rganiladi: 1) turlanadigan otlar (variable nouns); 2) turlanmaydigan otlar (invariable nouns) [25, 297]. Bular uch xil birlik va ko'plik shakllarini hosil qiladi: birlik va ko'plik oppozitsiyasiga ega bo'lgan otlar; faqat birlik shakliga ega bo'lgan otlar (singularia tantum nouns) va faqat ko'plik shakliga ega bo'lgan otlar (pluralia tantum nouns). Turlanadigan otlar asosan sanaladigan otlar (konkret otlar) bo'lib, ular birlik va ko'plik son qarama-qarshiligini hosil qiladi. Sanoqsiz otlar esa (abstrakt, modda otlari) birlik/ko'plik ziddiyatiga ega bo'lmagani uchun turlanmaydigan otlar guruhiga kiradi. Ko'plik affikslarning otga qo'shilish usuliga ko'ra to'g'ri va noto'g'ri usullariga ega bo'lgan ikki xil ko'plik shakli ajralib chiqadi. To'g'ri ko'plik usulida ko'plik shakllari so'zning asosiga -(e)s ko'plik qo'shimchasining otga o'ng tomondan birikishi orqali yasaladi. Ingliz tili orfografik va fonetik xususiyatlarga boy bo'lib, so'zlarning o'qilishi ularning yozilishi bilan mos kelmaydi. Masalan, ingliz tilidagi -(e)s ko'plik qo'shimchasi uchta fonetik variantga ([s], [z], [ɪz]) ega. Ularning o'qilishi so'zning oxirgi fonemasiga bog'liq. Agar so'zning oxiri [p], [t], [k], [f], [θ] undoshlariga tugasa -s affiksi qo'shiladi va ko'plik shakl [s] tovushini beradi: *desks* [desks], *cats* [kæts], *jeeps* [vi:ps], *bets* [bets]. Agar so'zning oxiri jarangli undoshlarga va unlilarga bitsa [ʌ, ɑ:, i:, b, d, g, l, m, n, o, u, v, w, y], u holda – (e)s affiksi [z] tovushini beradi: *boys* [boɪz], *friends* [frendz].

[s], [ks], [ʃ], [ʒ], [z] kabi undoshlardan keyin – (e)s ko'plik affiksi [ɪz] bo'lib o'qiladi: *matches* [mævɪz], *judges* [ʌvɪz], *sizes* [saɪzɪz], *mirages* [mɪ'ra:ʒɪz].

Imlo qoidalari: Ingliz tilida otlarga -s yoki -es ko'plik affikslarining qo'shilishi otlarning oxirgi tovushining qanday bo'lishiga bog'liq. Agarda so'zning oxiri -s, -ss, -sh, -ch, -z, -x, -o, -y, -f harflariga tugaydigan bo'lsa, unda bu so'zlarga -es affiksi qo'shiladi: *bus-buses, bush-bushes, bench-benches, box-boxes, buzz-buzzes*.

o harfiga bitgan so'zlarga -s yoki -es qo'shib otning ko'plik shakllari -os yoki -oes ko'rinishida bo'ladi. Agar o harfi unlilardan keyin kelsa (e+o; i+o; y+o; o+o; w+o), u holda ko'plik shakli -os orfografik shaklida bo'ladi: *bamboos, cuckoos, embryos, kangaroos, portfolios, radios, stereos, studios*.

Chet tillardan o'zlashtirilgan va qisqartirilgan so'zlarning ham ko'plik shakli -os ko'rinishida bo'ladi: *dynamos, Eskimos, flamingos, hippos (hippopotamus), kilos (kilogram), memos (memoranda), pesos, photos (photograph), pianos (pianoforte)*.

oes ko‘rinishidagi ot so‘zlar: *domino-dominoes, echo-echoes, embargo embargoes, hero-heroes, negro-negroes, potato-potatoes, tomato-tomatoes*.

Ba’zi so‘zlar -os yoki -oes variantlarining istalgan birida kelishi mumkin: *buffalo-buffalos/buffaloes, cargo-cargos/cargoes, mosquito-mosquitos/mosquitoes, tornado-tornados/tornadoes, volcano-volcanos/volcanoos*.

y harfi undoshlardan keyin kelsa i ga o‘zgaradi va -es affiksini oladi: *sky-skies*. Lekin unlilardan keyin y harfi o‘zgarishsiz qoladi: *boy-boys, day-days, guy-guys, key-keys*.

Agar ot so‘zlar [f] (yozuvda -f va -fe) unsiz frikativ tovushiga yakunlansa f harfi unli turi hisoblangan [v] tovushiga almashadi va -es ko‘plik affiksini oladi. Hosil bo‘lgan ko‘plik shakli [vz] bo‘lib o‘qiladi: *calf – calves; knife – knives*.

Yozilishi -ves o‘qilishi [vz] bo‘lgan so‘zlarga quyidagilar kiradi: *calf-calves, elf-elves, half-halves, leaf-leaves, life-lives, loaf-loaves, knife-knives, self-selves, sheaf-sheaves, shelf-shelves, thief-thieves, wife-wives, wolf-wolves*.

Ba’zi otlarda [f] o‘zgarishsiz qoladi: *belief-beliefs, brief-briefs, chief-chiefs, cliff-cliffs, cuff-cuffs, giraffe-giraffes, gulf-gulfs, handkerchief-handkerchiefs*.

Quyidagi otlar -ves va -fs ko‘rinishida kelishi mumkin: *dwarf-dwarfs/dwarves, hoof-hoofs/hooves, scarf-scarfs/scarves, wharf-wharfs/wharves*.

Otning oxiri -th harflariga yakunlansa -th hamma vaqt unsiz frikativ [θ] tovushini beradi. Lekin -s ko‘plik affiksi qo‘shilganda [θs] yoki [ðz] tovushlarini beradi. Quyidagi so‘zlarda -ths ko‘plik shakli [ðz] bo‘lib aytiladi: *mouth [mauθ]~mouths [mauðz], path [pa:θ]~paths [pa: ðz], bath [ba:θ]~baths [ba: ðz], [θs] tovush beruvchilarga berth ~berths [bɜ:θs], births, deaths, lengths, clothes, faiths, heaths*.

Noto‘g‘ri ko‘plik shakllari eski ingliz tili qoldiqlari bo‘lib, asosan ichki fleksiya (tubdagi unlilarning o‘zgarishi) orqali yasaladi: *man-men, woman-women, foot-feet, tooth-teeth, goose-geese, mouse-mice, louse-lice*. Ko‘plikning bu turini Amerika tilshunoslari *portmanteau morph* deb atashadi. Bu termin ikki morfemadagi ma’noning (man +s) bitta morfemada (men) jamlanishiga ishlatiladi [14, 38].

Noto‘g‘ri ko‘plikning ikkinchi turi bu -en qo‘shimchasi bilan yasaladigan ko‘pliklardir. -en ko‘plik affiksi uchta otda uchraydi: *ox-oxen, child-children, brother-brethren*. S. Grinbaum Amerika ingliz tilida birlik sonidagi *ox* so‘zining to‘g‘ri ko‘plik (oxes) va tub ko‘plik (ox) turlarida uchrashini yozadi. Shuningdek, ingliz tilining dialektlarida eski ingliz tilidan saqlanib qolgan *eyen* (eyes), *shoen* (shoes), *flen* (fleas) va *housen* (houses) so‘zlarining qo‘llanib kelayotganligini keltiradi. Bu shevalarda noto‘g‘ri shakldagi otlarning *mouses, louses, sheeps, swines, deers* kabi to‘g‘ri ko‘plik shakllari ham uchraydi. Hatto *mens, childrens, mices* kabi juft ko‘plik shakllarida uchraydi [20, 102-106].

Ayrim otlarning ko‘plik shakli hech qanday ko‘plik affikslarini olmaydi va ularning birlik va ko‘plik son ma’nolari so‘zning asosi orqali ifodalanadi. Bu so‘zlarning birlik va ko‘plik shakllari bir xil bo‘lganligi uchun ularni omonim, neytral yoki izomorf shakllar deb atashimiz mumkin. Ularning birlik yoki ko‘plik son shaklida ekanligi fe’l shakllari, noma’lum artikl, olmoshlar va sonlar orqali aniqlanadi. Nol ko‘rsatkichli otlarga quyidagilar kiradi: *a deer-two deer, one sheep-two sheep, one offspring-two offspring, a fish-two fish, a swine-two swine, a trout-two trout, one dice-two dice, moose-moose*.

Nol ko‘rsatkichli ko‘plik shakli ov sportida qo‘llaniladigan hayvon turlarining ovdagi massasiga nisbatan qo‘llaniladi. Buning sababi bu hayvonlarning poda shaklida hayvonlar massasi holatida bo‘lishi va ularni sanash imkoniyatining mavjud emasligidan deb qarash mumkin. Bu hayvonlarning podalari *of-frazalar* bilan ifodalanadi: *a flock of fish, a herd of swine, a shoal of fish, a school of fish*.

Millat nomlari shakllari shu millatga mansub kishilarni ifodalashda qo'llaniladi: *a Brazilian, a Mongolian*. Bunday so'zlarning ko'plik shakli – (e)s affiksi bilan yasali, ulardan oldin *the* artikli qo'llaniladi: *a Brazilian-the Brazilians*. Lekin -ch -ese -sh va -iss qo'shimchalari bilan yasaladigan millat nomlarining ko'plik shakllarida nol ko'rsatkichli ko'rinishda bo'ladi: *a Chinese-the Chinese, a Swiss-the Swiss, a Japanese-the Japanese, a Portuguese-the Portuguese*.

Barcha miqdor, uzunlik va og'irlik o'lchov birliklari hamda pul birliklari son turkumidagi so'zlardan keyin nol ko'rsatkichli ko'plikda ishlatiladi. Uzunlik va vazn o'lchov birliklari bo'lgan *foot* va *pound* sonlardan oldin nol shaklida yoki ko'plikda (og'zaki tilda) ishlatiladi: *She's only five foot/feet tall. Pound* pul birligi sifatida sonlardan keyin nol yoki to'g'ri ko'plikda ishlatiladi: *This ticket costs only two pound (s) fifty/two pounds*.

Ingliz tiliga lotin, yunon, fransuz va b. chet tillardan o'zlashtirilgan ayrim so'zlar shu tillardagi birlik va ko'plik morfologik shakllarida qo'llanadi. Lekin bu tub shakllar ko'pincha ilmiy kontekstlarga xos bo'lib, oddiy hollarda bu so'zlarning ba'zilar ingliz tilining o'zidagi unumli -s ko'plikda ishlatiladi: *formula* (oddiy hollarda) -*formulae* (matematika, lingvistika, v.h. fanlarda), *antennas* (elektron qurilma sifatida) -*antennae* (biologiyada).

Lotincha birlikdagi -us [əs] ko'plikda -i [ai] shaklida bo'ladi: stimulus – stimuli.

us-i: *alveolus-alveoli, bacillus-bacilli, stylus-uslub, uterus-teri*.

-a [ə] – ae [i:]: *alumna-alumnae, alga-algae, larva-larvae*.

-um [əm] -a [ə]: *bacterium-bacteria, corrigendum, desideratum, erratum, ovum*.

-ex, -ix -ices [isi:z]: *codex-codices*.

Appendix va index so'zlarining ko'plik son shakllari ikki ma'noli: 1) *appendix-appendixes* (ko'r ichak), *appendix-appendixes/appendices* (kitob oxiridagi ilovalar); *index-indices* (indeks-matematik atama); *index-index* (kitobdagi mavzular indeks).

Yunoncha: -is [is]-es [i:z]: *analysis [analysis]-analyses [analyssi:z], axis, basis, crisis, diagnosis, ellipsis, emphasis, hypothesis, parenthesis, psychosis, synopsis*.

Hozirgi qoraqalpoq yozma adabiy tilida ko'plik son ma'nosi -lar va -ler affikslari bilan ifodalanadi. Bu ikki affiksning yozilishi va o'qilishida hech qanday farq kuzatilmaydi. Bu affikslar otlarga tovush va bo'g'in ohangdoshligi asosida qo'shiladi. Bo'g'in singarmonizmi deganda bo'g'in tarkibidagi tovushlarning yo'g'on va ingichkaligi nazarda tutiladi. Ya'ni agar so'zning oxiri yo'g'on bo'g'inli bo'lsa, qo'shimchaning yo'g'on turi qo'shiladi. So'zning oxiri ingichka bo'g'inli bo'lsa, qo'shimchaning ingichka varianti birikadi [3, 49]. Otning oxirgi bo'g'ini tarkibida til orti (a, i, o, u) yo'g'on tovushlari bo'lsa, unda bu otlarga yo'g'on ovozga ega -lar birikishi, til oldi (a, e, i, o', u) ingichka tovushlilaridan iborat bo'g'inlarda jarangga ega -ler affiksi qo'shiladi. Ingliz tilida ko'plik affiksining birikishi oxirgi bo'g'inning yo'g'on yoki ingichkaligiga emas, balki so'z oxiridagi unli va undoshlarningga bog'liq bo'lsa, qoraqalpoq tilida oxirgi undosh tovushlar unchalik katta rol o'ynamaydi. Lekin ko'pchilik tillardagi kabi qoraqalpoq tilida ham yuqoridagi singarmonizm qonuniga bo'ysinmaydigan so'zlar uchraydi. Masalan, oxirgi bo'g'inlari **u** tovushiga ega bolgan chet tillardan o'zlashgan so'zlarda *u* unlisi *ú* tovushiga o'xshab o'qiladi va natijada ular -ler affiksini qabul qiladi: *lozung-lozungler, galstuk-galstukler, fartuk-fartukler, punkt-punktler, pult-pultler, pulsler*. Shuningdek, rus va boshqa tillardan olingan -rk, -nk -sk, -kt, -ks kabi tovushlarga bitgan so'zlarda, oxirgi bo'g'indagi tovushlar til orti unlilari bo'lsa ham ularga -ler affiksi qo'shiladi: *parkler; bankler; tankler; faktler, faksler*.

Bularga *-ler* affiksining qo'shilishida bu so'zlardagi *-k* tovushining ta'siri alohida. Chunki qoraqalpoq tilidagi tub so'zlarda *-k*- va *-g*- undoshlaridan oldin va keyin ingichka *-i* tovushi ishlatiladi, uning yo'g'on turi bo'lgan *-ı* tovushi esa deyarli ishlatilmaydi. Bunday tafovutni *-b* dan keyin *-l* keladigan rus tilidan o'zlashgan so'zlarda ham kuzatamiz: *korabl-korabller, ansambl-ansambller*.

Rus tilidan o'zlashgan *tuflı* (туфли) asarlarda *tuflilar* yoki *tufliler* shaklida uchraydi. Misol:

Tuflilarına iyneniń kózindey ılay jabıssa...(T.Qayıpbergenov).

Hayallardıń tuflileriniń kópligi sonshellı...(T.Qayıpbergenov).

Parol so'zidagi *o* tovushi qoraqalpoq tilida *ó* tovushini beradi va *-ler* affiksini oladi: *paroller*.

Rus tilidagi bosh harflardan olingan GAI (yo'l patrul xizmati) qisqartmasida *a* tovushi o'qilishda *á* tovushiga o'xshab ketadi va natijada bu so'zga ham *-ler* affiksi qo'shiladi: GAI+ler. Og'zaki nutqda rus tilidan kirgan *cifr* (цифр), *shifer* (шифер) so'zlardagi *-f* tovushining ortidan epenteza usulida *-ı* tovushi qo'shib aytiladi: [cifır], [shifır]. Bu hodisa bunday so'zlarning ko'plik shaklining *-ler* emas, balki *-lar* affiksi orqali yasalishiga sabab bo'ladi: *cifrlar, shiferlar*. *Poyezd* so'zi qoraqalpoq tilida [poyız] bo'lib o'qiladi va bu so'zning ham ko'plik shakli *poyezdlar* ko'rinishida bo'ladi. Misol: *Ortańnan poezdlar óter qıshqırıp (Á. Ájiniyazov).*

Qoraqalpoq tilida *q* va *x* kabi portlovchi undoshlardan keyin til oldi (a, e, i, ó, ú) unlilari deyarli uchramaydi, shuning uchun arab tilidan kirib kelgan *tariyx* kabi so'zlardan keyin oxirgi bo'g'inning ingichkaligiga qaramasdan til orti unlilari yoki shu unlilarga ega affikslar ishlatiladi: *tariyxı; tariyxları, xalıqları, qılıqları* va h.

Mis: *Ullı tariyxlardıń gúwası boldı (I. Yusupov).*

Ko'rib turganingizdek, qoraqalpoq tilida so'zlarga affikslarning qo'shilishida tovushlarning imlo qoidalari bilan birga ularning fonetik qonuniyatlari ham muhim rol o'ynaydi.

XULOSA

3-jadval

Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi otlarda ko'plik son ko'rsatkichlarining morfologik xususiyatlariga quyidagi jadval orqali qiyosiy xulosa qilishimiz mumkin.

№	Ko'plik son shakllarini yasovchi morfologik usillar	Ingliz tili	Qoraqalpoq tili
1	affiks	book-books child-children	kitap-kitaplar
2	Ø ko'plik (birlik-ko'plik omonim)	sheep-sheep	–
3	ishki flektsiya	man-men	–
4	chet-tillaridan kirgan ko'plik shakl	thesis-theses	–

Shuningdek ingliz tilida ko'plikniń *-s* va *-es* imlo variantlari [s], [z], [ɪz] fonetik variantlarini hosil qiladi. Qoraqalpoq tilidagi *-lar* va *-ler* affikslarining oqilishi [lar], va [ler] shaklida bo'ladi. Xulosa qilib yana shuni aytishimiz mumkinki, son grammatik kategoriyasi barcha tillarga xos bo'lgan universal tushuncha bo'lgani bilan turli tillar

oilasiga kiruvchi qoraqalpoq va ingliz tillaridagi otlarda birlik va ko'plik ma'nolariining grammatik vositalar bilan ifodalanishida bir qancha farqlar borligini ko'rdik. Bu xususiyatlar asosan so'zlarning birlik ma'nosini ifodalovchi alohida sintaktik vositalarga, so'zning o'z semantikasiga va eng asosiysi kontekstga daxldordir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бархударов Л. С. Очерки по морфологии современного английского языка/Л.С. Бархударов. – М., 1975. 156 с.
2. Гузев В.Г., Насилов Д.М. К интерпретации категории числа имен существительных в тюркских языках // Вопросы языкознания. – 1975. – №3. – С. 98-111
3. Дәўлетов А. Қарақалпақ тилинде сингармонизм. Нөкис – 1993.
4. Дмитриев Н.К. Грамматика башкирского языка. – М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1948. –276 с.
5. Дубровина М.Э. К вопросу о количественном значении тюркской субстантивной основы. Вестник Санкт-Петербургского университета. Сер. 9. 2007. Вып. 3. Ч. I.
6. Камалова Р. Т. Категория лица, числа и притяжательности в татарском языке в сопоставлении с английским и немецким языками: дисс... канд. филол. наук /Р. Камалова – Казань, 2010. – 218с.
7. Комарова З.И., Запезалова Л.А. Функционально-семантическая категория единичности в русском и английском языках: монография. – Екатеринбург: Изд-во УрФУ, 2010. – 236 с.
8. Любимов К.М. О числовом значении нулевой формы тюркских существительных / К.М. Любимов // Советская тюркология. – 1972. – №5. – С. 78-83.
9. Мурясов Р.З. Категория числа в разноструктурных языках в контрастивно-типологическом видении. Вестник Башкирского университета. 2016. Т. 21. №1.
10. Насыров Д.С. Қарақалпақ тилинде көплек категориясы. Нөкис – 1961.
11. Қыдырбаев А. Ҳазирги қарақалпақ тилинде атлық сөзлер. Нөкис, 1961.
12. Рахматжонов К.А. Ҳиндий ва ўзбек тилларида сон ва келишик грамматик категорияларининг чоғиширма типологияси. – Тошкент, 2022. – 120 б.
13. Хаймович Б. С. Роговская Б. И. Теоретическая грамматика английского языка. Москва. 1987.
14. Хлебникова, И.Б. Основы английской морфологии: учебное пособие / И.Б. Хлебникова. – 3-е изд., испр. – М.: Высшая школа, 2004. – 135 с.
15. Ҳазирги қарақалпақ тили морфология. «Қарақалпақстан баспасы» Нөкис-1981.
16. Ҳазирги қарақалпақ әдебий тилиниң грамматикасы. Нөкис: «Билим» – 1994. 451 бет.
17. Buranov, J., Hashimov, U., Ismatullaev, H. English grammar (Morphology and Syntax), O'qituvchi nashriyoti, Toshkent-1974.
18. Dáwletov A., Dáwletov M., Qudaybergenov M. Házirgi qaraqalpaq ádebiy tili. morfemika. Morfonologiya. Sóz jasalıw. Morfologiya. Nókis, Bilim, 2010. 251 b.
19. Ganshina, M.A. English Grammar /M.A. Ganshina, N.M. Vasilevskaya. -Ninth edition, revised. M.: Higher School Publishing House, 1964. – 548p
20. Greenbaum S. 1996. *The Oxford English Grammar*. Oxford University Press Inc., New York

21. Greville G. Corbett. Number. Cambridge University Press, 2004.
22. Huddleston, Rodney. 1984. *Introduction to the Grammar of English* [Cambridge Textbooks in English]. Cambridge: Cambridge University Press.
23. Jespersen, Otto 1924. The Philosophy of Grammar. London: Allen and Unwin.
24. Orazımbetov A.Q. Házirgi qaraqalpaq tilinde san mánisiniń ańlatılıwı. Qaraqalpaqstan baspası, Nókis, 2010.
25. Quirk Randolph, Sidney Greenbaum, Geoffrey Leech, and Jan Svartvik. 1985. *A Comprehensive Grammar of the English Language*. London and New York: Longman.